



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLECTUAL QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR O'RNI

Faxriddinova Shahribonu Murtozo qizi

Qarshi davlat universitetining Pedagogika institute magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6583947>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 15- may 2022

Chop etildi: 23- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Innovatsion, intellektual, texnologiya, intellekt qobiliyat, psixologik-pedagogik jihat, depozit.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola mazmunida innovatsiya tushunchasining mazmuni nazariy asoslari ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan bolib, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar o'rni xususida so'z yuritilgan.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmunida yosh avlodga ilmiy bilimlarni berish, ularda keng dunyoqarashni shakllantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga nisbatan yangi talablarning belgilanganligi pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondashuvni qaror toptirish, intellektual salohiyatni zarurligini ko'rsatmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yuqori samaradorlikka erishish shartlaridan biri-bu ta'lim muassasalari faoliyatini tashkiliy-texnologik jihatdan

to'g'ri va samarali boshqarilishi sanaladi. Bularning hammasi Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning yaqin uch yildagi, maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilinishiga oid bir qator hujjatlarni tasdiqlab, hayotga tadbiq etganliklaridan dalolat beradi:

"O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonining maqsadi esa - "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish" deb belgilanadi; Bugungi kunning eng dolzarb, hamma soha vakillari uchun dastur amal bo'lib xizmat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojatnomasida ta'kidlanishicha" 2019



yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi. Bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini, joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga joriy yilda budjetdan qariyb 2 trillion so'm mablag' ajratiladi. Bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga budjetdan 130 milliard so'm ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi. Ko'rinib turibdiki bu islohatlarning zamirida juda katta mehnat va qilinadigan ishlar katta ekanligidan darak beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faoliyatini boshqarishda samaradorlikka erishishning muhim yo'llaridan biri – bu mazkur jarayonning katta miqdordagi mablag' bilan moliyalashtirilishigagina bog'liq degan yondashuvdan voz kechish, aksincha, innovatsion xarakterga ega ijtimoiy qarashlarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan ko'plab falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik manbalarda ta'lim tizimida qaror toptirilgan innovatsion harakat pedagogik tashabbuslarning majmuasi sifatidagina emas, balki ma'lum ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi deya e'tirof etilishi bejiz emas. Shu bois O'zbekistonda ham ta'lim tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi va ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy maqsad etib belgilandi. Tarixiy jarayonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda keng ko'lamdagi innovatsion tendentsiyalar, fan, madaniyat sohasidagi o'zgarishlar, axloq, estetika va san'atning boshqa turlaridagi

nomutanosibliklar chuqur ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatish davom etmoqda. Bunday ta'sirlardan ta'lim sohasi ham chetda qolmayapti.

"Innovatsiya" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "yangilik kiritish" (ing. "innovation") bo'lib, mantiqan "tizim ichki tuzilishini o'zgartirish" sifatida e'tirof etiladi. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subektlarning harakat tizimidir. "Innovatsiya" tushunchasini o'zbek tilida "yangi", "yangilik" kabi ma'noda ifodalash ham to'g'ri sanaladi. Shu sababli ayni o'rinda tadqiqot muammosining mohiyatini to'laqonli anglash uchun "yangi", "yangilik", "innovatsiya" hamda "innovatsion faoliyat" tushunchalari mazmunini yoritish nazariy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir. Yangi ijtimoiy munosabatlarning innovatsion xarakterdagi ta'lim dasturlarida aks etishi pedagoglar, bolalar hamda ularning ota-onalari o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Innovatsion xarakterga ega ta'limiy dasturlarni amaliyotga tatbiq etishda pedagogik jamoa va ota-onalarning ta'lim tizimi boshqaruv organlari, davlat va mahalliy tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy va tijorat yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi muassasalarning birdek faol ishtiroki ta'minlanadi. Uzlüksiz ta'lim tizimini yuksak shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish va yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni mazmunan va shakllantirish va takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar, shuningdek, falsafiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik va menejment sohalarida olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishish ta'lim muassasalari, shu jumladan, maktabgacha



ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishning nazariy asoslari mavjudligini ko'rsatdi. Navbatdagi vazifa ijtimoiy talablarga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlari innovatsion boshqarishda yuqori samaradorlikka erishishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy o'rganishdan iboratdir. Ma'lumot o'rnida shuni aytaolamizki, "Innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalarining mohiyati ta'lim tizimiga innovatsion g'oyalarni tatbiq etish, innovatsion faoliyatning turli qirralari Sh.A.Amonashvili, V.A.Slastenin, O'Q.Tolipov, X.I.Ibragimov, Sh.K.Mardonov, U.N.Nishonaliyev, N.Shodiyev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. S.I.Ojegov "yangi" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: ilk bor tashkil topgan yoki yaratilgan, yaqinda paydo bo'lgan yoki yuzaga kelgan, avvalgisi o'rniga yuzaga kelgan, yaqin o'tmishga taalluqli yoki hozirgi kunga qadar yetarlicha yoki u qadar ma'lum bo'lmagan". Anglanganidek, tushunchaga berilgan izohda ilg'orlik, yangilikning samarasi xususida so'z yuritilmagan. Aytish mumkinki, barcha yangilik ham ilg'or xususiyatga ega bo'lmaydi. Ilg'orlik negizida birinchi navbatda samaradorlik, samara ifoda etiladi. M.M.Potoshnik ana shu nuqtai nazardan yangilikning ilg'orligini qo'lga kiritilgan natijalar bilan tavsiflash mumkinligini aytib o'tadi. Innovatsiya (yangilik kiritish) – bu boshqaruv obektini o'zgartirish hamda yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik samaralarni qo'lga kiritish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tadbiq qilishning yakuniy natijasi sanaladi. M.Jumaniyozovanning tadqiqotida "innovatsion faoliyat" faoliyat tushunchasi "uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida

shakllanadi va takomillashib boradi" deya talqin etilgan. Manbalarda "innovatsiya" tushunchasiga berilgan ta'riflarga tayangan holda aytish mumkinki, muallifning fikri mantiqan to'liq ifodalanmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik ta'minoti tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda innovatsion faoliyatining olib borish jarayonida intellektual qobiliyatni shakllantirish muhim jihati sanaladi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda innovatsion boshqarishning psixologik-pedagogik ta'minotini yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ta'limni insonparvarlashtirish va axborotlashtirishni e'tirof etish lozim. Innovatsion texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellekt qobiliyatini shakllantirishda bolalar bilan faoliyat jarayonida aqliy jihatdan mexanizmlashtirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Avvalambor intellektual qobiliyatni shakllantirishda bolani intellektual darajasini o'rganib, hisobga olgan holda ish olib borish zarurdir. Zeroki, intellektual darajasi yuqori va ijodiylik darajasi past bolalar rivojlantiruvchi muhit va faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga intiladilar, lekin birovdan o'z sirlarini yashiradilar, o'zlarini pasaytirib baholaydilar;

-intellektual darajasi past va ijodiylik ko'rsatkichi yuqori bolalar xavotirli, e'tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadilar;

-intellektual darajasi va ijodiylik ko'rsatkichi quyi bolalar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust sub'ektlar o'zlarini to'g'ri baholaydilar. Shunday qilib, ijodiylik jarayonida intellekt darajasi shakllantirishdagi munosabat bolalarning



shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta'sir qiladi.

Intellektni o'lchashni birinchi bo'lib, ingliz olimi Frensis Galton tomonidan amalga oshirilgan Galtonning fikricha xarakter irsiyat yo'li bilan avlodddan-avlodga o'tar ekan. U bunga bog'liq ravishda aqliy qobiliyatlarni irsiyat yo'li bilan tushuntirmoqchi bo'lgan. Galtonning tadqiqotlari unchalik yaxshi natijalarni ko'rsatmadi va erkak kishilarning natijali ayollarninkiga qaraganda yuqori chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Galtonning tadqiqotlari o'z samarasini bermagan bo'lsa ham biz uni aqliy qobiliyatlarni aniqlagan dastlabki tadqiqotchi sifatida tan olamiz. Intellectual qobiliyatning rivojlanishi irsiyatmi yoki ijtimoiy muhitning roli kuchlimi? F.Galtonning fikricha, intellektual qobiliyatning rivojlanishiga irsiyatninng rolini yuqori qo'ygan. Lekin ijtimoiy muhitning rolini yuqori qo'ysak, unda yaxshi ta'lim-tarbiya olmagan nosog'lom muhitda o'sgan bola qobiliyatsiz bola deb hisoblashga to'g'ri keladi. Haqiqatda ham bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarda intellekt koefitsenti deyarli bir xil natijani ko'rsatgan. Agar bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarni boshqa boshqa oilalarda tarbiya qilib ularning intellekt koefitsenti tekshirilganda, baribir natijani bir xiligini ko'rishimiz mumkin. Demakki, maktabgacha ta'lim mazmunini ilg'or pedagogik texnologiyalar va shaxsni hartomonlama rivojlantirish imkonini beruvchi samarali metodlar bilan boyitishda innovatsiya texnologiyalari asosida intellektni shakllantirish va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash samarali natija beradi. Bolalarda Intellectual qobiliyatlarni rivojlantirish quyidagicha ta'riflanadi, umuman olganda, aql barcha

bilim jarayonlarining tizimi, ya'ni fikrlash, his-tuyg'ular, xotiralar, hislar, e'tibor, hislar va tasavvurlar kabi tushuniladi. Fikrlash tushunchasi insonni o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashtirish uchun zarur bo'lgan xulq-atvor xususiyatlarini umumlashtirishga yordam beradi. Hayot muammolarini hal qilish qobiliyatini, og'zaki (o'qish tushunchasi, leksik fond, tarjimai hol) va amaliy bilimlarni (maqsadlarga erishish qobiliyatini) aniqlash. Shunday qilib, aqlni fikrlash apparatlarining muayyan bosqichi deb hisoblash mumkin. O'z navbatida, intellektual faoliyat qobiliyati kiruvchi axborotni idrok etish va qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlarining kombinatsiyasi hisoblanadi. Insonning intellektual qobiliyatlari tuzilishi shunday:

1. Depozit - bu miyaning strukturasi nuanslari asosida.
2. Umumiy, har qanday faoliyatda teng namoyon bo'ladi - xotira, o'rganish, diqqat-e'tibor.
3. Maxsus - muayyan faoliyat turlari uchun talab qilinadi. Masalan, musiqiy quloq yoki tijoriy tushunish.
4. Maxsus va umumiy maqsadlar asosida rivojlanayotgan guruh.
5. Kasb-hunar qobiliyatlari, ular mehnat jarayonlarida namoyon bo'ladi

Aql - bu fikrlash qobiliyatidir. Aqlni tabiat bermaydi, uni hayot davomida rivojlantirish kerak. Intellectual rivojlanish - yosh avlodni tarbiyalashning eng muhim jihati. Tarbiyalanuvchining intellektual rivojlanishining muvaffaqiyati asosan xonada, tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchlari bilan yolg'iz qolganda erishiladi. Va uning tizimli, kognitiv faoliyatni tashkil qilish qobiliyati o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqish darajasini, bilim darajasini, doimiy o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorligini, ya'ni



ularning intellektual rivojlanishi va intellektual rivojlanish inson faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Aloqa, o'qish, ishlashga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun odam dunyoni idrok qilishi, faoliyatning turli qismlariga e'tibor berishi, nima qilishi kerakligini tasavvur qilishi, eslab qolishi, o'ylab ko'rishi kerakdir. Shunday qilib, insonning intellektual qobiliyatlari faollikda rivojlanadi va o'zi maxsus turli faoliyat.

Bolalar bilan pedagogik ishini boshlayotganda, birinchi navbatda, bolaga tabiatan nima berilganini va atrof -muhit ta'sirida nima olinganligini tushunishingiz kerak. Inson moyilligini rivojlantirish, ularni qobiliyatga aylantirish - ta'lim va tarbiyaning vazifalaridan biri bo'lib, uni bilimsiz va intellektual jarayonlarni rivojlantirmasdan hal qilib bo'lmaydi. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil, ijodiy, izlanish, izlanish tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri umuman olganda maktabgacha ta'lim bolalarning intellektual rivojlanishining asosiy poydevorini yaratishi kerak, bu esa o'z harakatlarini tanqidiy baholaydigan, taqqoslaydigan, muammoni hal qilishning bir necha usullarini ilgari suradigan, ajratib ko'rsatadigan ijodiy, mustaqil fikrlaydigan odamni tarbiyalash uchun sharoit yaratadi. asosiy narsa va umumiy xulosalar chiqarish; bilimlarni nostandart sharoitlarda qo'llashdir. Har bir bola qobiliyat va iste'dodga ega. Bolalar tabiatan qiziquvchan va o'rganishga ishtiyoqlidir. Ular o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun kattalardan aqlli yo'l -yo'riq zarur. Tarbiyachining vazifalari: o'qitishning turli usullaridan, shu jumladan o'yinlardan foydalangan holda, bolalarning

harakatchanligi va fikrlash moslashuvchanligini maqsadli ravishda rivojlantirish. Buning uchun maktabgacha ta'lim tarbiyachisi sifatida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki psixologlar inson psixikasining xususiyatlari, intellekt asoslari va butun ma'naviy sohasi, asosan, maktabgacha shakllanishini aniqlangandir. Maktabgacha ta'limning birinchi uch -to'rt yilligida bolalarning aqliy rivojlanishidagi yutuqlar sezilarli. Vizual-samarali va boshlang'ich majoziy fikrlash hukmronligidan, kontseptsiyadan oldingi rivojlanish darajasidan va tafakkur mantiq'ining pastligidan, talaba aniq tushunchalar darajasida og'zaki-mantiqiy fikrlashga ko'tarilishi kerak. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, intellektni rivojlantirish jarayoni o'quv va kognitiv faoliyatni to'g'ri tashkil etish bilan mumkin va ayniqsa, maktabgacha yoshida, agar shaxsiy bilish ehtiyojlari etarlicha kuchli bo'lsa va motivatsion ehtiyojlar sohasi pedagogik ta'sirga moslashuvchan bo'lsa. Yuqoridagilarning barchasini inobatga olgan holda, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil, ijodiy, izlanuvchanlik, izlanish tafakkurini rivojlantirish xususan maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lim bolalarning intellektual rivojlanishining asosiy poydevorini yaratishi kerak, bu esa o'z harakatlarini tanqidiy baholaydigan, taqqoslaydigan, taqqoslaydigan, muammoni hal qilishning bir necha usullarini ilgari suradigan, ajratib ko'rsatadigan ijodiy, mustaqil fikrlaydigan odamni tarbiyalash uchun sharoit yaratadi. asosiy narsa va umumiy xulosalar chiqarish; bilimlarni nostandart sharoitlarda qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Jumanioyozova M.T. Innovatsion faoliyat tushunchasi va malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash //Xalq ta'limi j. – T.: 2004. 6-son. – 137-140-b.
2. Jumanioyozova M.T. Innovatsion faoliyat ta'lim sifatining kafolatidir // Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2004. 6-son. – 88-92-b.
3. Yo'ldoshev. J.G'. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.
4. Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 150 b.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 46 b.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2006. – 261 b.
7. O'zbekiston Respublikasida pedagogik ta'lim Konsepsiyasi. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 1995. – 20 b.
8. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
9. A.X.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.
10. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.